



KONSEPT TALQINIGA LINGVISTIK YONDASHUV

Abdullayeva Mushtariybegim Murodiljon qizi

FarDU lingvistika (o'zbek tili)yo'nalishi magistri

Annotatsiya. Mazkur ishda konseptning lingvistik talqini xususida so'z yuritiladi. Ma'lumki, inson so'zlarni ularning ma'nosi darajasida emas, balki ularning ma'nosi beradigan mazmun darajasida, ya'ni konseptlar darajasida egallaydi. So'zlarning ma'nosi ushbu ma'nolar ortida turadigan ma'lum kognitiv tuzilishlar bilan o'zaro bog'liq va ularni tushunishni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: konsept, tushuncha, konseptual maydon, konseptosfera, mental dunyo, mental hodisa, semantik qurilma, lingvistik paradigma.

Konsept umumfanlar doirasidagi kategoriya bo'lib, "bilim" tushunchasiga ega. Konsept lotin tilidagi *conceptus* – "tushuncha" so'zining kalkasidir. Konsept ikki tomonli xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirsa, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli millat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi [1]. Konsept lingvomadaniy birlik sifatida u yoki bu xalq madaniyatining o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi.

O'tgan asrning 90-yillarida faollashgan "konsept" termini birinchi marta S.A.Askoldov-Alekseyev tomonidan 1928 yilda qo'llangan va tushunchadan





farqlangan. Olimning fikricha, “konsept fikriy qurilma, fikrlash jarayonida bir turdagi cheksiz narsalarni almashtiradi, u olam tasvirining ifoda birligi - til va madaniy bilimlar, tasavvur va baholarni o‘z ichiga olgan mental hodisa[2,269]. YE.S.Kubryakova talqinicha, “konsept ongda o‘rnashgan, ongning jamlik tabiatiga ega bo‘linuvchan birligi, konsept asosida inson tafakkur jarayonini amalga oshiradi. Konsept hodisa va uning sifatlari haqidagi axborotning ongda shakllanishi jarayonida vujudga keladi, shuningdek, bu axborot o‘z ichiga hodisalarning borliqdagi va tasavvurdagi obyektiv o‘rni haqidagi tavsiflarni oladi. Bu ma’lumot individning borliq haqida ko‘rgan, bilgan, tasavvur qilgan, o‘ylaganlari haqida bo‘ladi”[3,90].

Mazkur termin tilshunoslikda dastlab tushuncha so‘ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo‘lsa[4,35-47], uning hozirgi vaqtdagi izohidan tushuncha terminiga nisbatan kengroq ma’no kasb etganini ko‘rish mumkin.

“Konsept ongning har qanday bo‘linuvchan mazmuniy unsuri, ya’ni u mazmunga tayanadi, mavhum va umumlashgan tushunchani ham, aniq va xususiy tasavvurni ham qamrab oladi” [5,127]. Shu jihati bilan (keng qamrovliligi - umumiyni ham, xususiyni ham o‘z ichiga olishi bilan) tushunchadan farqlanadi.

N.Y.Shvedova konsept - bu tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o‘z tarixiy ildizlariga ega bo‘lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi[6,603].

L.V.Adonina konsept terminiga bag‘ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 xil ta’rifini keltiradi va konsept





terminini o'n nuqtai nazardan tasnif qiladi. Bu tasnifga ko'ra, konsept standartlashishiga ko'ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy konseptlarga; qo'llanishiga ko'ra ilmiy, badiiy, maishiy konseptlarga; ifodalanishiga ko'ra leksik, frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy konseptlarga bo'linadi va h.k.[7]

Inson so'zlarni ularning ma'nosi darajasida emas, balki ularning ma'nosi beradigan mazmun darajasida, ya'ni konseptlar darajasida egallaydi. So'zlarning ma'nosi ushbu ma'nolar ortida turadigan ma'lum kognitiv tuzilishlar bilan o'zaro bog'liq va ularni tushunishni ta'minlaydi.

Konsept qanchalik chuqur tahlil qilinmasin, uning tushuncha bilan chegarasi yuvilib ketmoqda, ularni farqlash imkoniyati kamayib borayotir. Demak, bu ikki - biri ko'hna va biri navqiron mohiyatlarning chegarasini oydinlashtirish, tavsiflarda ularning barqaror sifatlarini aniqlash kerak, aks holda, ulardan biri (albatta, keyingisi) o'z ahamiyatini yo'qotadi. Konsept - mohiyatan semantik qurilma; lingvomadaniy hodisa.

Muayyan konsept zamirida ma'lum bir konseptosfera shakllanadi. "Konseptosfera - konseptual maydonni tashkil etuvchi "konseptual maydonchalar"dir"[8,287]. Konseptosfera - kishilarning sistema sifatida shakllangan bilimlarini ifodalovchi fikriy obrazlar yaxlitligidir[9,18]. Demak, aytish mumkinki, konseptosfera sistemaviylik; uzviylik; uzluksizlik; taqozo etuvchilik; farqlilik; pog'onaviylik singari tashkiliy sifatlarga ega. "Qaysi xalq tilida yaratilgan manbalar - xalq og'zaki ijodi, adabiy va ilmiy yodgorliklar, manbalar, san'at asarlari qanchalik ko'p va boy bo'lsa, o'sha xalqning milliy konseptosferasi ham shunchalik boy bo'ladi"[10,280].





Har bir lingvistik paradigma o'ziga xos tayanch tushunchalar va kategorial apparatga ega. Kognitiv yondashuvning yadroviy tushunchasi konsept bo'lib, boshqa barcha tushunchalar uning atrofida aylanadi.

Konseptni lingvistik tushunishda uchta asosiy yondashuv kuzatiladi. Birinchidan, keng ma'noda konseptlar sirasiga milliy-lisoniy ong bilan bog'liq bo'lgan hamda til vakillarining "dunyoning oddiy manzarasi"ni shakllantiruvchi leksemalar kiritiladi. Bunday konseptlar majmuasi millat madaniyati jamlangan tilning konseptosferasini tashkil qiladi. Ushbu yondashuvda dunyoni leksik semantikada olam konseptualizatsiyasi uslubi, asosiy tadqiqot vositasi konsept semantikasining bazaviy tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi turg'un aloqalar sifatida ajraluvchi konseptual model belgilovchi hisoblanadi. Bunda konseptlar ma'nosida semantik tasavvur usuli ko'zga ko'ringan istalgan leksik birlikni qamrab oladi. Ikkinchidan, nisbatan tor ma'noda konseptlar safiga lingvomadaniy xossalarga ega bo'lgan hamda u yoki bu shaklda muayyan entomadaniyat tashuvchilarini tavsiflovchi semantik tuzilmalarni ham kiritishadi. Bunday konseptlar majmuasi konseptosferani qandaydir butunlik va tuzilmaviy semantik makon sifatida namoyon etmaydi, lekin unda ma'lum o'rinni - konseptual sohani egallaydi. Va nihoyat, konseptlar sirasiga faqat ro'yxati yetarli darajada cheklangan va milliy mentalitetni uning vakillari tomonidan dunyoga munosabat sifatida tushunilishida kalit rolini o'ynovchi semantik tuzilmalarni kiritishadi.

Metafizik konseptlar (ko'ngil, haqiqat, erkinlik, baxt, muhabbat va hokazo) -yuqori yoki cheklangan darajada mavhum bo'lgan mental mohiyatlar bo'lib, ular ma'nosi faqatgina o'z predmetlik ma'no tushunchasini mavhum ma'no ifodasiga yo'naltirgan ramz - belgi orqali namoyon bo'ladigan ma'naviy qadriyatlarni "ko'rinmas olam"ga uzatadilar. Konsept va uning lingvistikadagi talqinlarini





umumlashtirar ekan, S.G.Vorkachev quyidagi xulosaga keladi: “konsept - bu jamoaviy bilim, lisoniy ifodaga ega va etnomadaniy xususiyatlar bilan qayd qilingan (oliy ma'naviy qadriyatlarga tegishli) ong birligi”[11,79] . Shuningdek, konsept - bu hissiy, his-hayajonli, ta'sirchan, baholash belgilari bilan o'ralgan tushunchadir; bu tasavvur, tushuncha, bilim, assotsiatsiya, kechinmalar “bog'lami” bo'lib, u so'zlar va ular tomonidan ifodalanayotgan tushunchalar bilan birga namoyon bo'ladi.

Mohiyatan konsept ifodalovchi leksik birliklar miqdori chegaralangan, chunki har qanday voqelikni anglatadigan nom konsept bo'la olmaydi. Konseptni borliqdagi shunday voqeliklar tashkil qiladiki, bunda ular ma'lum bir madaniyat egalari uchun dolzarb, qimmatli sanaladi hamda uni ifodalovchi ko'p miqdordagi til birliklari mavjud bo'ladi, bular jamiyatdagi muhim ijtimoiy voqeliklar, millatning o'ziga xos bo'lgan qadriyatlarida o'z aksini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1.Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры [Текст] / Ю. С. Степанов. - М.: Академический проект, 2004.

2.Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. - М.: Academia, 1997. - С. 269.

3.Кубрякова Е.С. Языковая картина мира как особый способ репрезентации образа мира в сознании человека // Вестник Чуваш. гос. пед. ун-та им. И.Я. Яковлева. - 2003. № 4. - С. 90.





4.Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в научном языке // Вопросы филологии. - М., 2001. - №1. - С.35-47.

5.Никитин М.В. Лексическое значение в слове и словосочетании: Автореф. дисс д-ра филол. наук. - Л., 1974. - 127 с.

6.Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. - М.: Языки славянской культуры, 2005. - С. 603.

7.http://rtsu.slavist.t/index.php?option=com_content&view=full&id=149&Itemid=80 8.Кошарная С.А. Миф и язык. - Белгород, 2002. - 287 с.

9.Попова З.Д Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях // З.Д. Попова, И.А. Стернин. - Воронеж, 1999. - С.18.

10.Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка // Русская словесность: Антология / под ред. В.П. Нерознака. - М.: Academia, 1997. - С. 280-287.

11.Воркачев С.Г. Методологические основания лингвоконцептологии//Теоритическая и прикладная лингвистика. Вып.3: Аспекты метакоммуникативной деятельности. - Воронеж, 2020. - С. 79-95.